

Buvayda tumanida "Mahalla yettiligi" uchun o'quv-seminar tashkil etildi

Buvayda tumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Farg'ona viloyati filiali hamda Farg'ona viloyati hokimligi bilan hamkorlikda "Mahalla yettiligi" uchun o'quv-seminar tashkil etildi.

Unda "Mahalla yettiligi" yangi tizimining muhim ahamiyati, imkoniyatlari borasida bilim va ko'nikmalar berish hamda har bir mas'ulning mahalladagi o'rni, asosiy vazifa va majburiyatlarini tushuntirildi.

Shuningdek, tadbirda "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish, kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

2024-02-14 12:06:04